



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini
tasdiqlash haqida**

“Fuqarolar maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari va muassasalaridan rozi bo‘lishi kerak” tamoyilini so‘zsiz amalga oshirishni davom ettirish, sovg‘alarga nisbatan talab va shartlarini belgilash, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning har qanday ko‘rinishlarining, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son va 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son, shuningdek, 26-maydagi PF-79-son Farmonlari, 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosini ta’minlash va ichki lokal hujjatlarni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini olish-berish tartibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim hujjatlariga **3-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar)lar bo‘limlari, maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari va muassasalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari:

tizimda qonuniylikni ta’minlash, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan Dasturni amalga oshirish borasida tashkiliy chora-tadbirlarni ko‘rsin va sohani alohida nazoratga olsin;

manfaatlar to‘qnashuvi va sovg‘alar bilan bog‘liq masalalarni alohida nazoratga olsin reestri yuritilishini tashkil etsin;

korruptsiyaga qarshi kurashishga oid ichki lokal hujjatlardagi topshiriqlarning (aniq ijrochilar, muddatlar va bajarish mexanizmi ko'rsatilgan amalga oshirish grafiklarini tasdiqlagan holda) amalga oshirilishi bo'yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etsin;

manfaatdor tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan hujjatlarni ushbu buyruqqa muvofiqlashtirsin.

4. Devonxona (X.Raximboyeva) ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalariga yetkazsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil 31-iyul,
236-son



X. Umarova